

Gidrometereologik Xavfli Jarayonlar Haqida Tushuncha

Abdullayeva Mehriniso Norimon qizi

Xorazm viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi

Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi o'qituvchisi

Annotatsiya:

Maqolada Hidrometereologik xavfli hodisalar sel, toshqin hamda respublikamizning Tog' oldi hududlari va unga tutash tekisliklarida ko'p yomg'ir yog'ishi natijasida paydo bo'ladigan sellar va sel oqimlariga oldindan tayyorlanishning samarali usullari to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: gidrosfera holatining o'zgarishi, halokatli ko'chkilar, atmosfera (havo muhiti) tarkibi va xossalari o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar, quruqlik (tuproq, yer osti)ning holati o'zgarishi bilan bogliq vaziyatlar.

Qor ko'chishi, kuchli shamol (dovul), ko'chki yog'ingarchilik (jala) va boshqa ob-xavoning keskin o'zgarishi natijasida turli dam olish maskanlari, turistlar va sportchilarning jaroxatlanishi, aholi punktlariga jiddiy zarar yetkazadigan noxush vaziyatlar majmuasi.

Sel, suv toshqini, to'planishi oqibatida farovon xayotni izdan chiqaruvchi aholi turar joylariga, sanoat va kishlok xo'jaligi obyektlariga jiddiy ta'sir ko'rsatish natijasida shoshilinch ko'chirish tadbirlari bilan tugallanadigan xavli vaziyatlar.

Sel – suvning mexanik faoliyatidan yuzaga keladigan murakkab jarayon bo'lib, turli omillarning o'zaro ta'siri natijasida vujudga keladi. Uning tarqalishida maxalliy sharoit aloxida o'rin egallaydi. Sel vujudga keladigan yoki sodir bo'lish extimoli yuqori bo'lgan joylarni sel uchogi deb yuritiladi. Sel uchogi paydo bo'lishining asosiy ko'rsatkichi gidrometereologik sharoit hisoblanadi. Uzoq muddatli jala yog'ishi va muzliklarning qisqa muddatda kuchli erishi oqibatida daryo uzanlaridagi suv miqdorining keskin ko'payib ketadi. Natijada suv bilan aralashgan (qum, shagal, dagal bo'lakli jinslar) oqimi paydo bo'lishi natijasida maydonning quyi qismlarida katta kuchga ega bo'lib ko'pgina qo'poruvchilik ishlarini amalga oshiradi. Shu sababga ko'ra sellar ikki guruxga bo'linadi: glyatsial – muzlik va qorlarning tez erishi va jalali – ko'p miqdorda yomg'ir yog'ishi natijasida paydo bo'ladi. Ularning paydo bo'lishida joyning geomorfologik tuzilishi va cho'kindi jislar miqdori ham alohida o'rin egallaydi.


Respublikamizning tog' oldi hududlari va unga tutash tekisliklarida ko'p yomg'ir yog'ishi natijasida paydo bo'ladigan sellar keng tarqalgan. Yirik qor va muzlik qatlamlari tarqalgan tog'li zonada esa glyatsial turi ko'prok uchraydi. Sellarning jalali turi aholi va hududlarga katta xavf solib ko'p miqdorda iqtisodiy zarar yetkazadi.

Sel oqimlari xarakter xususiyati bo'yicha turbo'lent va strukturali turlariga bo'linadi. Turbo'lent sellar uzan bo'ylab, daryo va soylardagi suv miqdori ortib ketishi natijasida oqim harakati qonuniga muvofiq vodiy yo'nalishi bo'yicha bo'ladi.

Strukturali sellar maydon bo'ylab, turli tosh bo'laklarining butun yonbag'r bo'yicha yoppasiga bostirib kelishi natijasida bo'ladi.

Har ikkala xususiyatga ega bo'lgan sellar daryo o'zanlari va yonbag'rlarni buzishi bilan birga keng ekin maydonlariga katta miqdordagi oqova oqimini olib keladi.

Vatanimizni o'rab turgan tog'lar va tog' oldi hududlari selga xavfli hududlarga kiradi. Ayniqsa, Qashqadaryo, Namangan, Jizzax, Farg'ona, Surxandaryo va Toshkent viloyatlarida ko'proq uchraydi.



Respublikamizning sel xavfi bor joylardagi aholini xavfsiz joylarga o'tkazish bo'yicha Favqulodda vaziyatlar vazirligi, bosh gidromet xizmati hamda suv va qishloq xo'jaligi vazirligi xodimlari joylardagi mahalliy hukumat organlari rahbarlari bilan maxsus dasturlar asosida harakat qilmoqdalar.

Xavfli joylarda joylashgan aholining to'g'ri harakat qilishida, ayniqsa ko'chki va sel oqimlari bo'ladigan hududlarda, xavf yuzaga keladigan omillarni o'z vaqtida aniqlash, qayd etish va bundan aholini xabardor qilish tadbirlari muhim o'rinni egallaydi.

Sel xavfi bor joylardagi aholi uchun daqiqa mobaynida, ko'pi bilan 1-2 soat ichida ogohlantirilishi kerak.

Sel oqimi xavfi tugilishini qanday bilish mumkin?

Avvalo, sel va boshqa joylarda ehtimoli yuqori bo'lgan xavflar to'g'risidagi

Ma'lumotga aholining hamma tabaqasi ega bo'lishi shart. Xususan, sel xavfi bo'lishiga me'yoridan ortiq jala quyishi yoki mavsumga xos bo'lmagan haroratning birdan ko'tarilishi sababchi bo'ladi. Sodir bo'lgan sel to'g'risida, aholi yashash joylariga yaqinlashishdan quyidagi ko'rsatkichlar dalolat beradi. Daryo va soy suvlarining oshib ketishi, ularning yuqori qismida barcha shovqinlarni qamrab oluvchi kuchli gumburlash, oqimdagi yirik toshlarni bir-biriga urilishi natijasida vahimali larza hosil bo'ladi.

Bunday hollarda eng muhimi sarosimaga tushmaslik va kerakli ehtiyot choralarini ko'rish zarurdir.

Sel oqimlariga oldindan tayyorlanishning samarali usullaridan biri aholining barcha tabaqalari bilan agroteknika, gidroteknika obodonlashtirish majmuasiga kiruvchi bir qancha tashkiliy-xo'jalik tadbirlarini amalga oshirishdan iboratdir. Bundan tashqari sel xavfi bor joylardagi daryo o'zanlari, suv omborlari, kanallar qirg'oqlarini mustahkamlash zarur, bunday inshootlar bo'lmagan joylarda sel oqimi tuzoqlari, oqimni aholiga zarari tegmaydigan joylarga yo'naltiruvchi tarmoqlarni ko'rish lozim.

Toshqin. Tabiiy ofatlar ichida katta talofatlar keltiradigan, aholini og'ir taxlikaga soladigan va qisqa vaqt ichida shiddatli bo'ladigan suv toshqinlaridir.


Toshqin – daryolar, soylar, dengizlar, ko'llarda suv satxining keskin ko'tarilishi oqibatida yuzaga kelib, yer yuzasining katta maydonlarini vaqtincha suv bosishidir.

Toshqinlar ko'p hollarda kuchli jala, harorat ko'tarilish bilan qor va muzliklarning keskin erishi natijasida xavzalardagi suv miqdorining ko'payishidan paydo bo'ladi. Bundan tashqari suv xavzalari atrofidagi yonbag'rlarda ko'chki sodir bo'lishi qoyalardan tog' jinslari o'pirilishi bilan xavzadagi suv toshib chiqishi va tug'onlarni bexosdan buzilib ketishi oqibatida ham sodir bo'lishi mumkin. Odatda bunday toshqinlar juda xavfli bo'ladi. Toshqinlarning yana bir turi shamolning katta tezligi bilan bog'lik bo'lib, dengiz suvini qirg'oqlarga ma'lum balandlikda bostirib kelishidan paydo bo'ladi. Lekin, toshqinning bu turi mamlakatimizda uchramaydi.

Vatanimizning tabiiy tuzilishi, gidrometreologik sharoiti, muxandis – gidrogeologik inshootlarni boshqa tabiiy ofatlar kabi toshqin bo'lib turishi va uning xavfi yuqoriligidan dalolat beradi. Ayniqsa suv tarmoqlari atroflarida juda ko'p tarqalgan.

Toshqinlarning hosil bo'lishi, garchan bir xil sababdan bo'lsada, ya'ni ob-havo sharoitining keskin o'zgarishi natijasida me'yoridan ko'p yog'ingarchilik bo'lishi, aholi yashash joylari va hududlarga turli ta'sir ko'rsatadi. Bular ichida eng kuchlisi halokatli toshqinlar hisoblanib, ular uzoq muddat yoqqan yomg'ir natijasida yuzaga keladi. Bizning sharoitda toshqinlar bilan birga sellar doim kuzatiladi.

Selli toshqinlar odatda qisqa vaqtda paydo bo'lib, asosiy xususiyatlaridan biri shitob bilan suv kelishi oqibatida suv inshootlari atrofini, qirg'oqlarni, ba'zan to'g'on va ko'priklarni yuvib ketadi. Natijada suv satxining ko'tarilishidan katta-katta maydonlarni suv bostirib yuborishi oqibatida shu joydagi ekinlar, muxandis inshootlar katta zarar kuradi. Bunday noxush xollarni



oldini olish bo'yicha ilmiy muassasalar muammoning yechimiga katta e'tibor berib keng miqyosdagi izlanishlar olib borayotgan bo'lsa, hukumat, maxalliy hokimiyat organlari rahbarlari

esa joylarda mavsum sharoitida tayyorgarlik ko'rish lozimligi va tadbirlarni quyushqoqlik bilan qisqa muddatda o'tkazish yo'llarini ishlab chiqishmoqda.

Toshqinning hosil bo'lish xususiyatiga ko'ra ba'zi extiyot choralari amalga oshirish lozim. Ya'ni oziq-ovqat, ichimlik suvi, kiyim-kechak va boshqa maishiy xo'jalik zaxiralariga ega bo'lish, ularni suv bosmaydigan joylarda saqlash. Kerakli hujjatlar, zarur mol-mulk bilan evakuatsiyaga tayyorgarlik ko'rish zarur.

Toshqin juda katta tezlik bilan avj olayotgan bo'lsa, zudlik bilan yaqin atrofdagi tepalikka qarab yurish, bino sharoitida bo'lsangiz yuqori qavatlarga ko'tarilish, tomlarga chiqib olish tadbirlarini amalga oshirish lozim. Ammo barcha extiyot choralariga qaramasdan mabodo, suv ichida qolsangiz, eng muhimi sarosima va vahimaga berilmasdan xotirjamlik bilan ustki va oyoq kiyimlarini yechish, suv oqimi bo'ylab birorta balandroq yoki mustahkam asosga ega bo'lgan predmetni tanlash, suv bilan birga harakat qilayotgan buyumlardan izingizni ehtiyot qilish choralari ko'rishingiz lozim.

Zaruratga ko'ra uylarni, xonalarni tark etayotganingizda suv, gaz, elektr tarmoqlarini xavfsiz holatga keltirishni unutmaslik kerak. Yerto'lalarda oziq-ovqat zaxirasi mavjud bo'lgan taqdirda, ularni quruq bo'lgan joylarga, suv bosib zarar yetkazmaydigan joylarga olib qo'ygan ma'qul.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 oktyabrdagi "Tabiiy, texnogen va ekologik tushdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to'g'risida"gi 455-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 9-sentyabr kunidagi "Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muxofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to'g'risida" gi 754-sonli Qarori.
3. Ibrohimov Q. Ekologik muammolar nazoratining o'ziga xos xususiyatlari. Huquq. O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasining nashri. 19.04.2014